IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 21 Issue 02 May 2026**

# UZLATDAN HALOVAT TOPGAN YASSAVIY

**Axmadova Dinora Sherali qizi**

Kattaqo`rg`on davlat pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-bosqich talabasi

+998938509585

dinowaaxmadova@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20286209

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy xalqlar orasida ulkan adabiy meros qoldirgan mutafakkir Ahmad Yassaviyning hayot yo`li davomida haqiqiy muhabbat, ya'ni Allohning muhabbatiga qanday erishish mumkinligi va nima sababdan umrining qolgan qismini odamlardan uzoqda, uzlatda o`tkazganliklari „Devoni hikmatda''dagi she'riy parchalar orqali yoritib berilgan. Shuningdek, buyuk mutasavvuf olimning qisqacha hayoti haqidagi qarashlar tarixchi olimlar fikri asosida yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** So`fi, tasavvuf, haq taolo, munoqibiy, hikmat, tarki dunyo, poklanish, bob.

**Abstract**: This article sheds light on the life path of the thinker Ahmad Yasawi, who left a great literary legacy among the Turkic peoples, on how to achieve true love, that is, the love of Allah, and why he spent the rest of his life away from people, in seclusion, through poetic fragments from "Divani Hikmatda". Also, the views on the brief life of the great Sufi scholar are highlighted based on the opinions of historical scholars.

**Keywords**:Sufi, Sufism, the Almighty, munaqibiy, wisdom, leaving the world, purification, chapter.

**Аннотация**: В данной статье освещается жизненный путь мыслителя Ахмада Ясави, оставившего великое литературное наследие среди тюркских народов, рассматривается вопрос о том, как достичь истинной любви, то есть любви к Аллаху, и почему он провел остаток своей жизни в уединении, вдали от людей, посредством поэтических фрагментов из «Дивани Хикматда». Также освещаются взгляды на короткую жизнь великого суфийского ученого, основанные на мнениях историков.

**Ключевые слова**: Суфизм, Всевышний, мунакибий, мудрость, уход из мира, очищение, глава.

## KIRISH

Islom dini paydo bo`lgandan so`ng, uning doirasida qur'on va hadis ahkomiga mos ravishda yuzaga kelgan tasavvufiy ta'limotlar Movarounnahrda ham keng tarqala boshladi. Tasavvuf yaqin va o`rta sharq xalqlarining ma'naviy hayoti tarixidagi eng murakkab o`zaro ziddiyatlarga to`lib-toshgan va muhim hodisalardan biri bo`lib, u bu dunyo boyliklaridan va noz-u ne'matlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak uchun pok, halol, o'z mehnati ila yashash hisoblanadi. Markaziy Osiyoda ana shunday tasavvuf ilmini baholi qudrat mukammal o`rgangan va yassaviya (jaxriya) tariqatiga asos solgan Ahmad Yassaviy edi.

So`figo`y olim hayoti haqida Nafas Shodmonovning O`zbek adabiyoti tarixi o`quv qo`llanmasida birmuncha ma'lumotlarni olishimiz mumkin. „ Adib Turkistonning Yassi shahri

yaqinida, Sayram qasabasida ruhoniy oilada tavallud topgan. Otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo‘lgan. Onasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun (Qorasoch oyim deb ham yuritiladi) nomi bilan mashhur edi. U irodali, dono va go‘zal ayol edi. U Ahmad tug‘ilishidan ko‘p o‘tmay vafot etadi. Yassaviy Otasi Ibrohim ibn Mahmud ibn Iftixor shajarasi payg‘ambar Muhammad alayhissalomning qizlari Fotima avlodidan, o‘n birinchi bo‘g‘inda avliyo shayx Is’hoq boboga tutashgandir. Shayx Ibrohim va Oysha xotunning hurmat-u nufuzi baland bo‘lgan. Shunga qaramay, Ahmadning yoshligi og‘ir kechadi. Otasi ham uning yetti yoshligida vafot etadi. Uning tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi. Ahmad opasi bilan Yassiga ko‘chib boradi va ilk tahsilni Yassi shahrining mashhur shayxi va mutasavviflaridan bo‘lgan Arslonbobodan ola boshlaydi. Bu haqda “Hikmatlar”ning bir necha o‘rnida ta’kidlanadi. Shayx vafotidan so‘ng u Arslonbobning vasiyatiga ko‘ra Buxoroga boradi va Movarounnahrning eng yirik shayxlaridan bo‘lgan Shayx Yusuf Hamadoniy qo‘lida tarbiya topadi. Bu yerda u Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abdulloh Barraqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lib, Yusuf Hamadoniyning sara muridlari qatorida o‘ziga xos o‘rin egallaydi’’[1]

Turk olimi Muhammad Fuod Kuprulizoda fikricha, Ahmad Yassaviy hayotining ham tarixiy, ham manoqibiy (manoqib- arabcha „fazilat’’ buyuk kishilar, atoqli san’atkorlar, shuningdek, din namoyandalari haqida ularni tanigan yoki maslakdoshi bo`lgan kishilar tomonidan yozilgan xotira asar) tarafdan o`rganilganligi sababli uning tug`ilgan yili va vafot etgan yili haligacha ilmiy jihatdan aniq emas.

„Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdi,

Xurmo berib, parda birlan sirrim yopdi.

Bihamdilloh, ko`rdum, teyu yuzum o`pdi,

Ulsabadin oltmish uchda yerga kirdim.

Bu to`rtlik Ahmad Yassaviy haqidagi manoqibiy rivoyatlarni tasdiqlovchi muhim dalil sifatida ham qimmatlidir. Mana shu o`rinda hikmatlar faqat badiiyat namunalari bo`libgina qolmay, balki tarixiy voqealarni ham o`z qamroviga singdirganjanr ekaniga guvoh bo`lamiz.’’[2]

Keyingi fikrlarga qaraganda buyuk mutasavvuf ham olim, ham shoir, Yassaviy 120 yildan ortiq umr ko`rgan. Bu haqda Natal Mallayevning kitobida ko`rishimiz mumkin.„ Rivoyatlarga ko`ra, Ahmad Yassaviy payg`ambardan ortiq umr ko`rishni ( Muhammad 63 yoshida vafot etgan) gunih deb bilib, 63 yoshida yerto`laga – chillaxonaga kirgan emish,umrining oxirgi yillaridni o`sha chillaxonada nuqul toat-ibodat bilan o`tkazgan emish. Ayrim manbalard, jumladan, Mavlono Xusomiddin Sig`noqiyning risolasida Ahmad Yassaviyning 130 yil umr ko`rgan deb ma’lumot beriladi. Bu ma’lumotda mubolag`a bo`lishi mumkin. Biroq ko`pchilik manbalarning ko`rsatishicha, Axmad Yassaviy 1166(562)-yilda vafot etgan’’[3]. Uning hikmatlaridagi misralardan ham nima sababdan odabmlardan uzoqlashib, uzlatga chekinganini bilib olish mumkin:

„Yoshim yetdi oltmish uchqa bir bir kuncha yo`q,

Vo darig`o, haqni topmay ko`nglim sinuq,

1. [1]Nafas Shodmonov. „O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi’’ – o`quv qo`llanma – 181-bet
2. Nasimxo Rahimov. „ o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent – 2017. 213-bet

Yer ustida sultonmen deb bo`ldim ulug`,

Shokir bo`lib yer ostig`a kirdim mano…

…Sizni, bizni Haq yaratdi toat uchun,

Ey bul ajab, ichmak, yemak rohat uchun,

Qolu balo, ruhim bori tuhmat uchun,

Adham bo`lib yer ostig`a kirdim mano.’’[4]

Ollohning marhamati-yu dardi shunchalik muqaddaski, hattoki haq taoloning [2]dardini ham sotib olib bo`lmaydi, ya’ni Olloh faqat o`zi xohlagan bandasiga dard beradi. Bundan tashqari haq yo`liga poklanmasdan kirib bo`lmasligini uqtiradi. Poklanish uchun esa kishi foniy dunyo matohlaridan uzoqlashib Ollohga qalban yaqinlashishni taqozo etadi:

Olloh dardi sotqu ermas sotib olsang,

Piru mug`on xizmatida xok bo`lmasang,

Haq yo`liga kirib bo`lmas pok bo`lmasang,

Lomakonda haqdin saboq oldim mano.

Haqiqiy oshiqlar so`zlari bilan oshiqligini da’vo qilishmaydi o`zi va olloh o`rtasidagi munosabatni barchadan sir turishga harakat qiladi, ularning haqqa bo`lgan muhabbatini harakatlaridan bilinib turadi ya’ni barchaga birdek muomalada bo`lishga va barchaga birdek yaxshilik qilishga oshiqadi. Yolg`on oshiqlar esa qanchalik oshiqman deb bong urmasin harakatlari haq taologa qarshi bo`lsa ular yolg`onligicha qolaveradi:

Ishq da’vosin manga qilma, yolg`on oshiq,

Oshiq bo`lsang bag`ring ichra ko`z qoni yo`q,

Muhabbatni shavqi birla jon bermasa,

Zoye kechar umri oni, yolg`oni yo`q.

**Xulosa:** Yuqoridagi fikrlar va misralardan shuni bilib olishimiz mumkinki, Ahmad Yassaviy nafaqat o`z davrining mutasavvuf olimi, balki tasavvufiy she’rlarni yuqori mahorat bilan yozadigan shoir ham. Ahmad Yassaviyning hikmatlarini o`qigan kitobxon o`ziga xulosa qilsa arziydigan ko`plab nasihatlarni oladi. Bu haqda Yassaviyning o`zi ham ta’kidlaydi:

Qayu tolib hikmatimni tutsa aziz,

Qoyda borsa, boshi - aziz, so’zi - laziz,

Yaxshi so’zni fahm aylamas har betamiz,

3.Natal Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi – 1965 – 152-bet

4.Ibrohim Haqqul. Axmad Yassaviy HIKMATLAR – 1991

Ul sababdin dono izlab yurdum mano.

Shu qatorida ma’joziy ishq haqiqiy ishqqa olib boradigan ko`prik ekanini anglaydi. Ya’ni inson nafsi orqali dunyo zeb-ziynatlarini sevadi, iymoni orqali esa haqiqiy muhabbatga – allohning raxmatiga erishadi. Inson qachonki nafsni chetga surib iymonini qalbiga yaqin tutsa, ana shunda lekin ana shu sevgisidan kecib nafsni jilovlay olsagina haqiqiy muhabbatni his qila oladi. Bundan tashqari hikmatda ko`plab har bir davrda dolzarb masalardan biri bo`lib kelgan ustoz shogird masalari o`rtaga tashlangan:

Oriflarni suhbatidin bahra olg'on,

Xudoyig'a yaqin bo’ldi, bildim mano.

Piri komil mukammilga xizmat qilib,

Ixlos bilan sir-asrorin bildim mano.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nafas Shodmonov. „O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi’’ – o`quv qo`llanma – 181-bet
2. Nasimxo Rahimov. „ o`zbek adabiyoti tarixi. Toshkent – 2017. 213-bet
3. Natal Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi – 1965 – 152-bet
4. 4.Ibrohim Haqqul. Axmad Yassaviy HIKMATLAR – 1991.